

Ona yurtning - oltin beshiging

TONG yulduzi

N: 47
(66484)


2004 yil
22 noyabr - 28 noyabr

Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiqa
boshlagan

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.



Vatanimning tug'rosi,
Osmonimning Zuhrosi,
Bobolarim g'ururi,
Ilm, aql, shuurim,
Bo'lib hilpira, Bayroq!

Yer yuzida charx urar,
Qaddimiz tiklab turar,
Yuksaklarga yetkazar,
Dildan g'ubor ketkazar
Bo'lib hilpira, Bayroq!

Umr arqog'in bog'lab,
Yutuqlar sari chog'lab,
G'animg'larga uqubat,
Alpomishlarga quvvat
Bo'lib hilpira, bayroq!

BAYROQIM

Gulchehra ABDUAZIMOVA,
Yunusobod tumanidagi 273-maktab o'quvchisi.

742 ga 2 ni QO'SHSAK...

Obuna ishlari qizg'in olib borilayotgan bir pallada tahririyatdan Andijon viloyatiga qo'ng'iroq qildik. Bir necha bor urinishdan so'ng, ushbu qo'ng'iroqqa viloyat «Kamolot» YoHning yoshlar bilan ishlash bo'lim mudiri Sidxonov Shahboz Ma'murovich javob berdilar. Ularni oz-moz qiynab qo'ydik chog'i, bu savollarga ko'ngildagidek bo'lmasa-da, aniq javob berdilar.

-Obuna bo'yicha olib borayotgan ishlaringiz haqida ma'lumot bersangiz...

-Obunani jadallastirish maqsadida shahar va tumanlarga xat yuborganmiz. Bu borada joylarda targ'ibot va tashviqot ishlari ham olib borilmoqda.

-Andijon viloyati bo'yicha «Tong yulduzi» gazetasiga necha dona obuna bo'lish rejalashtirilgan?

- Viloyat bo'yicha umumiy 742 dona «Tong yulduzi»ga obuna bo'lish rejalashtirilgan.

-Viloyatda nechta maktab mavjud?

-744 ta maktab bor. Ammo o'quvchilar faqatgina «Tong yulduzi»ga emas, balki viloyatimizning boshqa nashrlariga ham obuna bo'lishadi-da.

Demak, 742 maktabga bir donadan «Tong yulduzi» yetib borganda ham, ikkita maktab gazetasiz qolar ekan-da!.. Ushbu nufuzli, Respublika bolalari va o'smirlarining yagona gazetasiga shaharda har bir maktabda 20 donadan obunachi topilayotganda, viloyatdagi bu ko'rsatkich kam emasmi? Hech bo'lmaganda, 742 ga 2 ni qo'shib, bu ko'rsatkich 744 ga yetkazilsa, Andijon viloyatidagi har bir maktabga (shunda ham) bir donadan «Tong yulduzi» yetib borar ekan. Bu borada obuna bo'yicha Andijon viloyati mutasaddilaridan javob kutib qolamiz.

GARIFJANOVA suhbatlashdi.



«MEHRJON»NING BULOG'I

Quyosh va oy falakning ikki ko'zi bo'lganidek «Navro'z» va «Mehrjon» zaminning ikki ko'zgidir, degan ekanlar buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy.

Tadbir

Yaqinda poytaxtdagi Mirzo Ulug'bek tumani o'quvchilar ijodiyot markazida «Mehrjon-mehr-muruvvat bayrami» bo'ldi. Bayram Mirzo Ulug'bek tumani xalq ta'limi bo'limi «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati Toshkent shahar bo'limi bilan birgalikda juda chiroyli va tantanali ravishda o'tdi. Tadbir «Ta'zim senga ona zamin», «Kulgu-chehraning guli»,

«Asfaltga rasm chizish», «Ikibana yasash» ko'rik-tanlovi, «Kuz malikalari» tanlovi, «Tabiat in'omlari» ko'rik tanlovlari bilan kelgan mehmonlar va o'quvchilarga katta taassurot qoldirdi.

O'quvchilar ijodiyot markazi direktori Gulira'no Abdurazzoqova har bir ishtirokchini mehnatiga alohida e'tibor berib, hakamlar ishtirokchilarning barchasini sovg'alar bilan taqdirlash uchun chin dildan harakat qildilar. Bunday serma'no kechani tashkillashda opaga yaqindan yordam bergan Shirmonoy opa, Muyassar opa,

Halima opa boshqa qatnashchilarga minnatdorchilik bildirdilar. Zokirov boshliq doirachilar dastasi, S.Yu.Jbanova boshliq 50-maktab o'quvchilari chiqishlari, 222-maktab o'quvchilari ekologik mavzudagi sahna ko'rinishlari barchaga manzur bo'ldi. Kuz malikalari Saida, Anastasiya va Umidalar o'zlarining go'zalligi, iste'dodi va hunarlari bilan hammani lol qoldirishdi. Ayniqsa, tantanali taqdirlash paytida qimmatbaho sovg'alarni olgan bolajonlar «Mehrjon»ning mehri bilan uyga qaytishdi.

Nodira MIRZAYEVA.

Oltin kuz - to'kin-sochinlik, yil bo'yi qilingan mehnatga yakun yasaldigan fasldir. Bu yil paxtakorlarimizning

sidqidildan mehnat qildilar. Anora Sayidahmedova rahbarlik qilayotgan 10-sinf o'quvchilari Dilnoza Kubayeva, Hilola Kelchinova,



HASHAR - ELGA YARASHAR

samarali mehnatlari evaziga dalalarimizda hosil mo'l bo'ldi. Chanoqlarga to'lib-toshgan oppoq paxtalarni nes-nobud qilmasdan terib olishda barcha o'z hissasini qo'shdi. Bizning Zangiota tumanidagi 36-umumta'lim maktabimizning yuqori sinf o'quvchilari ham paxtakorlarga yaqindan yordam berish maqsadida Toshkent viloyatining Quyi-Chirchiq tumanidagi «O'zbekiston besh yilligi» jamoa xo'jaligi dalalarida

Fazliddin Nazirov, Elmurod Toshmuhammedov, Nodira Fatxullayevalar kuniga 80-90 kilogrammdan paxta terishib, boshqalarga o'rnak bo'lishdi. «Maktabimizda a'lochi, jamoatchi o'quvchilarimiz ko'pchilikni tashkil etadi. Bu yilgi terimda ham ular ilg'orlar safida bo'di», - deydi maktab direktori Ergash aka Mamajalilov. Qalbida yoshlik shijoati jo'sh urib, dehqonlar bilan yonma-yon mehnat qilayotgan ushbu maktab o'quvchilariga o'qishlarida muvaffaqiyat tilaymiz.

ASALCHI amaki.

XAYOLBARIM

Men tunlari olam-olam o'ylar suraman,
Iltom bergan sehlardan bedor yuraman.
Orzularim xayollarim bergan qudratdan,
Filsimlarga makon bo'lgan saroy quraman.
Onam aytar: «Qo'ying qizim! Ko'p surma xayol»,
Buvimjonim keltiradi ibratli maqol.
Singlimjonim quvlik da ustimdan kular,
Uchovlashib doim meni qiladilar lol.
Xayollarim, sizlar mening uchqur otlarim,
Iltomlatim, she'riyatim julf qanotlarim.
Poyoni yoq usqlarga yetganda parvoz,
Fug'iladi qalbdan mening yangi baytlarim.
Dilafro'z USMONOVA,
G'afur G'ulom nomli 169-maktabning
8-sinf o'quvchisi.

MUKOFOT KIMGA NASIB ETADI?

Kuni kecha Shayxontohur tumanida «Zulfiya» mukofotiga nomzodlar ko'rik-tanlovining II-saralash bosqichi bo'lib o'tdi. Kamoliddin Behzod nomli rassomlik kolleji binosida 30 ga yaqin turli yo'nalishlar bo'yicha tanlab olingan iqtidorli qizlar o'zaro bellashdilar. O'zim shu tanlovning qatnashchisi bo'lsam ham, bahslashuvchi dugonalarimning iste'dodi va iqtidoriga tahsinlar o'qidim. O'zbegining bunday oqila, fikrli, kelajakka shaxdam qadam tashlovchi «Zulfiyaxonim qizlari» bor ekan, shoira Zulfiyaning nomi asrlar osha yangrayveradi. Ko'rik-tanlovni kuzatar ekanman, Prezidentimizning Farmoni oliylarini qanchalik kuchga egaligiga amin bo'ldim. Qizlarimizning uquvsiz bo'lib, turli qing'ir yo'llarga kirib ketishini oldini oluvchi eng to'g'ri yo'l turli tanlovlarga jalb qilishdir.

Ushbu tanlov yakunida 10 ga yaqin iste'dodli va iqtidorli qizlar tanlab olindi. Men ham bu bosqichdan muvaffaqiyatli o'tdim. Endi dugonalarim bilan III-bosqichda bellashamiz. Bizni Ollohning o'zi qo'llasin.

Umida HUSANOVA,

UDK «Tibbiyot kolleji» talabasi, «Zulfiya» mukofoti nomzodi.

BULUTOY YIG'LAGANDA

Bulutning xaltasida,
Suvlar yig'ilib qoldi.
Kuzning bir pallasida,
Yomg'ir yog'ib yubordi.
Shamollar qochib ketdi,
Quyoshjon bug'laganda.
Chaqmoqlar cho'chib ketdi,
Bulutoy yig'laganda.
O'tkir QO'CHQOROV,
Shayxontohur tumanidagi
316-maktabning 7-«G» sinf o'quvchisi.

MOZIY-KELAJAK USTOZI

Tarix kelajakning asl ustozidir. Undan qancha ko'p bahra olsak, shuncha ko'p yorug'likka, bebaho boylikka ega bo'lamiz. Tarixiy asarlar hech shubhasiz moziyni o'tmishga bog'lovchi ko'prik vazifasini o'taydi. Bu borada tengdoshlarimizning bugungi kundagi tarixiy kitoblarga munosabati bilan qiziqdik. Keling, ularning fikrlari bilan o'rtoqlashaylik:

Shahnoza ABDURAHMONOVA, 10-sinf o'quvchisi:

-Men ajdodlarimiz haqidagi asarlarni o'qiganimda, go'yo o'sha muhit hayoti bilan yashagandek bo'laman. Qahramonlarimning quvonchu-qayg'ulari o'zimmidek. Ularga o'xshagim kelaveradi. Sevimli adibimiz Mirzakalon Ismoilning «Farg'ona tong otguncha» romanini albatta o'qib chiqing. Asar qahramonlari G'ulomjon, Hayotxonlarning mustahkam irodasini hech narsa bukolmaganiga o'zingiz amin bo'lasiz.

Gavhar RAHMATULLAYEVA, 10-sinf o'quvchisi:

- Tarixiy mavzularda bitilgan asarlarni sevib mutolaa qilaman. Amir Temur, Ulug'bek, Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz haqida qayta-qayta o'qigim keladi. Ayniqsa, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» asarini o'qiganimda insoniy tuyg'ular, pok muhabbat, ona va qiz munosabatlari qanchalik halollikni, sabr bardoshni talab qilishini chuqur his qildim. Asardagi Otabek va Kumush obrazlari esa eng sevimli qahramonlarimga aylandi. Moziy asarlari bizga o'sha davr urf-odatlarini, buyuk g'alabalardan saboq beradi.

Nodira MIRZAMATOVA, 10-sinf o'quvchisi:


- Fikrimcha, tarixiy asarlar o'quvchilarni faqatgina darsliklarga kishanlanib qolmasdan, yanada o'qib-o'rganishni, o'z ustida ishlashni o'rgatadi. Masalan, Odil Yoqubovning «Ulug'bek xazinasi» asarini o'qiganimda, Ulug'bekning ruhiyatini, ota-o'g'il munosabatini to'liq bilib olamiz.

Zokirjon ABDULLAYEV, 11-sinf o'quvchisi:

- O'tmish asarlari nafaqat o'z yurtimiz, balki o'zga yurtlar tarixini bilib olishimizga katta yordam beradi. Xalqlarning turli-tuman urf-odatlarini, milliy bayramlari, hunarmandchiligi bilan yaqindan tanishamiz.

Fazliddin SODIQOV:

- Tarixiy asarlarning ahamiyati juda katta. Ularni o'qiganimda ko'plab ma'lumotlarni bilib olamiz. Tarixiy joylarning nomlari, tarixiy shaxslar, sanalarni bilib olamiz. Pirmiqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» asarini o'qiganimda, Mirzo Boburning qay taxlitda taxtning vorisi bo'lishi, bolaligining ijtimoiy tizim ta'sirida o'tganligi, vatanidan olisda o'tkazgan og'ir kunlari menda katta taassurot qoldirdi.




Nuriddin HAYDAROV, Saodat SODIQOVA tayyorladilar.

MAKTABIM

Maktabim nurli dargoh,
O'quvchilar ko'ngli chog'.
Ustozlarim mehribon,
Shundan bo'lar konglim chog'.
Qiziqarli fanlar bor,
Biz bolalar baxtiyor.
Ozoda va keng maktab,
Yuraman doim maqtab.

Muxlisa MUSAXO'JAYEVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi
137-maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi.



SARIQ KASALLARGA XOM QOVOQ PO'STI

Bu xastalikda qon tarkibida bilirubin miqdori ortib ketadi. Sariq kasalligining kelib chiqishi asosan jigar faoliyatining buzilishi bilan bog'liqdir. Sariq kasalini davolash uchun qadimgi Sharq tabobatida juda ko'p shifobaxsh o'simliklardan foydalanilgan. O'rik - shifobaxsh meyalardan hisoblanib, uning o'zini qaynatib, sharbatini suv o'rnida ichish tavsiya etilgan.

Ibn Sino anorning qobig'i, po'stlog'i va gulidan teng miqdorda olib, damlama tayyorlashni va kuniga uch mahal yarim piyoladan ichishni tavsiya etgan. Qora zirk (qoraqand) o'simligi ham sariq kasalligida foydalanilgan ne'matlardan hisoblanadi. Uning eng muhim xususiyatlaridan biri - qonni tozalashdir. Tarvuz ham shifobaxsh ne'matlardan hisoblanadi. Uning tarkibida vitaminlar, organik kislotalar, pektin kabi inson organizmi uchun nihoyatda zarur moddalar bor. O't va peshob haydashda eng

kuchli vositalardan hisoblanadi.

Sariq kasali bilan og'riqan bemorlarga qovoqning po'stini xomligicha berish ham tavsiya etiladi. Sariq kasaliga tovuq go'shti, no'xat, qatiq, anorning suvini ham tez-tez berish, ravochni ezib sharbatini berish, turp urug'ini damlab ichirish, sedanadan yetti dona olib, ayol sutida ivitiladi va undan burunga tomizilsa, sariq kasalligi va ko'z sariqligiga qarshi foyda beradi.

Kungaboqar guli qaynatmasi ham sariq kasalligida foyda qiladi. Qaynatma tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishga bir stakan suv qo'yib, ustiga bir qoshiq maydalangan gulidan solinadi va 15 daqiqa qaynatiladi-da, bir soat qo'yib qo'yiladi. So'ngra, dokadan suzib, qaynatmadan kuniga 3-4 mahal bir osh qoshiqdan ichiladi.

Manzura UBAYDULLAYEVA tayyorladi.

Nurli yo'l

Aziz bolajonlar! Yurtimizda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga va mahalliy kengashlarga saylovlar tobora yaqinlashmoqda. Saylovda siylash bo'lmaydi. Qarindosh-urug'chilik, tanish-bilishchilikka aslo yo'l qo'yilmaydi. Xalqimizning ishonchini oqlaydigan, jonkuyar, fidoyi, qonunlarni yaxshi biladigan, bir so'z bilan aytganda, har tomonlama yetuk insonlar deputatlikka saylanadilar.

Ular bir-biriga o'xshasa-da, ayrim jihatlari bilan farqlanadi. Ya'ni, Qonunchilik palatasining Kengashi tarkibiga mazkur palatada tuzilgan fraksiyalar va deputatlar guruhlarining rahbarlari ham kiradi. Senat Kengashining tarkibida esa, ushbu palatada bunday birlashmalar tuzilmagani sababli, fraksiyalar va deputatlar guruhlarining rahbarlari ishtirok etmaydi. Palata Kengashlari o'z vakolatlari



SAYLOVMI, SIYLOV?

Saylov jarayoni va uning mohiyati to'g'risida kengroq tushunchaga ega bo'lishingiz uchun huquqshunos jurnalist Olimjon O'SAROV bilan suhbatlashdik.

Olimjon akangiz 1973 yilda Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanida tavallud topgan. Oliy ma'lumotli. Uch nafar shirindan-shakar farzandning mehribon otasi. Rafiqasi Adiba Hamro taniqli shoira. Ayni vaqtda ular O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi matbuot kotibi, Oliy sud «Axborotnoma» huquqiy, ilmiy-amaliy jurnali va «Kuchadolatda» gazetasi Birlashgan tahririyati Bosh muharriri lavozimida ishlaydi.

-Bugungi kunda jamiyatimiz saylov huquqi sohasidagi qonunlarning butun bir majmuiga ega. Aytinch, saylash va saylanish huquqi kimlarga beriladi? Umumiy saylov o'zi nima?

-Diyorimizda Konstitutsiya, saylov to'g'risidagi va boshqa qonunlardan iborat saylov qonunchiligining demokratik, erkin adolatli tizimi yaratilganligi mustaqilligimizning asosiy negizidir. Saylov kunigacha 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari saylash huquqiga, saylanish huquqiga esa saylov kuni 25 yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan fuqarolar egadirlar. Sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda qatnashmaydilar.

Qonunchilik palatasiga bo'ladigan deputatlar saylovi umumiydir.

-Saylovda faol ishtirok etish uchun fuqarolar saylovchilar ro'yxati bilan tanishtiriladimi?

-Albatta tanishtiriladi. Saylovchilarning ro'yxati bilan saylov komissiyasi binosida uchastka saylov komissiyasi tanishish imkoniyatini yaratadi.

-Qanday tartibda deputatlikka nomzodlar ko'rsatiladi?

-Deputatlikka nomzodlarni siyosiy partiyalar va bevosita fuqarolar ko'rsatish huquqiga egadirlar. Bunda saylovchilar

tashabbuskor guruhining vakolatli vakili guruhni ro'yxatga olishni iltimos qilib, tegishli okrug saylov komissiyasiga ariza bilan murojaat etadi.

Saylovchilar tashabbuskor guruhi o'zining vakolatli vakiliga ro'yxatga olinganlik guvohnomasi berilganidan keyingina deputatlikka nomzodni qo'llab-quvvatlash yuzasidan saylovchilar imzosini to'plashga haqli. Bu sanaga qadar to'plangan imzolar hisobga olinmaydi.

-Senat bilan Qonunchilik palatasining farqi nimada?

-Oliy Majlisning umumiy boshqaruvini ta'minlash va faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida parlament palatalari rahbariyati, ya'ni Senatda-Senat raisi va uning o'rinbosarlari, Qonunchilik palatasida esa palata Spikeri va uning o'rinbosarlari saylanadi. Senat Raisi va uning o'rinbosarlari Senat a'zolari orasidan, Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlari esa Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan yashirin ovoz berish orqali saylanadilar. Senat Raisi va Qonunchilik palatasi Spikeri tegishli palatalarga rahbarlikni amalga oshiradilar.



doirasiga kiruvchi masalalar bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi. Qonunchilik palatasida palata Spikeri, Senatda esa ushbu palata Raisi tegishli Kengashga rahbarlik qiladi.

Oliy Majlis palatalari muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, qonunlar hamda palatalar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar ijrosini nazorat qilish uchun qo'mitalar tuziladi. Qo'mita raisi, uning o'rinbosari va a'zolari saylanadi. Qonunchilik palatasi qo'mitalari palatada qonun loyihalarini tayyorlash ishi bilan ham shug'ullanadi.

Senat qo'mitalarining umumiy soni qoida tariqasida sakkiztadan, Qonunchilik palatasida esa o'ntadan oshmasligi kerak. Deputatlar birlashmalari Oliy Majlisning faqat Qonunchilik palatasida tashkil etiladi.

-Kimlar Senat a'zosi bo'la oladi?

-O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati (yuqori palatasi) hududiy vakillik palatasidir. Senat a'zolari (senatorlar) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli

qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda olti kishidan saylanadi.

Senatning o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

-Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari nimalardan iborat?

-Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari jumlasiga:

1. Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o'rinbosarlari, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash.

2. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan Qonunchilik palatasi deputatini dahlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish.

3. Reglamentni hamda o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan boshqa qarorlarni qabul qilish.

Siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan Qonunchilik palatasining qarorlarini qabul qilish kiradi.

Tahririyatdan: Aziz bolajonlar! Mana, saylov to'g'risida ancha bilimga ega bo'ldingiz. Sizing qunt bilan bilim olishingiz, yayrab kamol topishingiz, ertangi kuningiz uchun yurtboshimiz boshchiligida diyorimizdagi fidoyi insonlar astoydil jon kuydirishmoqda. Saylab, saylanish huquqiga ega bo'lmasangiz ham atrofingizdagi saylovchilarni va saylanuvchilarni albatta kuzating. Xalqimizning munosib farzandlari saylanayotgan deputat aka va opalaringizning nima sababdan shunday nufuzga ega bo'lganligini o'rganing. Siz ham kelajakda albatta saylovchi va saylanuvchi bo'lasiz. Hech shubha yo'qki, kelgusida xalqimiz uchun fidoyi insonlar sizning orangizdan yetishib chiqmoqda. Siz ertangi kunimizning munosib vorislarisiz. Buni hamisha yodingizda tuting.

Mazmunli suhbatlari uchun Olimjon akangizga minnatdorchilik bildiramiz.

Jamila ERDONOVA
suhbatlashdi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUSIYASI

MUQADDIMA

O'zbekiston xalqi: inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib,

hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglagan holda, o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda,

respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida,

o'zining muxtor vakillari siyomosida O'zbekiston Respublikasining mazkur Konstitusiyasini qabul qiladi.

Aziz o'quvchilar, har kuni maktabdan uyga qaytganingizda hech bo'lmaganda bir marotaba teledasturga ko'z yugurtirib olasiz. Maktab o'quvchilari uchun berib boriladigan «Oq kabutar», «Oltin toj» kabi ko'rsatuvlar sizlarni qoniqtiryaptimi? Yoshlar kanali orqali 30 daqiqada davomida efirga uzatiladigan «Yoshlar ovozi» ko'rsatuvi-chi? Aynan shu savollarni «Yoshlar ovozi» ko'rsatuvi orqali «Tong yulduzi»ni muntazam sharhlab boruvchi opangiz Muhayyo TURDIALIYEVAGA berdim:

-«Yoshlar» telekanalining maktab o'quvchilari uchun namoyish etiladigan qaysi ko'rsatuvlari sizni qoniqtiradi?

-Maktab o'quvchilari uchun namoyish etiladigan ko'rsatuvlar asosan «Yangi avlod» studiyasi ijodkorlari tomonidan tayyorlanadi. «Oq kabutar», «Uyga vazifa», «Bo'sh o'tirma», «Katta tanaffus» ko'rsatuvlari menga yoqadi.

-«Yoshlar ovozi» ko'rsatuvining yoshlarimizga berayotgan ma'naviy ahamiyatini qanday baholaysiz?

-«Yoshlar ovozi» ko'rsatuvining muxlislarining aksariyat qismini talaba yoshlar tashkil etadi. Ko'rsatuvimiz ijodkorlari, boshlovchilar yosh bo'lishlariga qaramay, tinmay izlanadilar. Yoshlar orzu-istaklari, muammolariga ko'proq e'tibor qaratgan holda ko'rsatuv tayyorlanadi. Shaxsan ushbu ko'rsatuv mening hayotimda katta o'zgarish bo'lishiga sabab bo'lgan. Misol tariqasida o'zimga boshimdan

«YOSHLAR»NI KO'RASIZMI?

voqeani aytib berishim mumkin.

Yoshligimdan telejurnalist bo'lishni orzu qilardim. Televideniya ishlash, professional jurnalist bo'lish - bular men uchun ushalmas orzu edi. Hali litsey talabasi bo'lganim sabab bunday imkoniyatlardan yiroqdaligimni anglab yetardim. Ammo... 15 yoshimda «Yoshlar» telekanalining muharriri Asliddin Suyunov ushalmas orzuimni ro'yobga chiqardilar. Ular «Yoshlar ovozi» ko'rsatuvida «Tong yulduzi» gazetasini sharhlashim mumkinligini aytib qoldilar. Buning uchun bir nechta sinovdan o'tishim kerakligini ham ta'kidlab o'tdilar.

-Shubhasiz, sinovda ijobiy natijalarga erishgansiz, shunday emasmi?

-Televideniyaning ichki qoidalariga rioya qilgan holda suhbatdan o'tdim. Suhbat ingliz tilida bo'lgani uchun ochig'i, sinovdan o'ta olmadim, deb o'ylagandim. O'sha kuni kayfiyatim yo'q, uyga umidsizlanib qaytdim. Bir-ikki kundan so'ng borib xabar olsam, sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan ekanman.

-Oddiy muxlisa sifatida «Yoshlar» telekanalidagi qaysi ko'rsatuvlarni sevib tomosha qilasiz?

-«Davri» axborot-

informatsion dasturini muntazam kuzatib boraman. Seriallar ko'rishni yomon ko'raman. Undan ko'ra «Tom va Jerri», «Senimi, shoshmay tur» kabi multfilmlarni mazza qilib tomosha qilaman.

-O'zTV I kanalida namoyish etilayotgan Koreya seriallari ham siz yoqtirmaydigan seriallar qatoridami?

-Yo'q, «Qish sonatasi» seriali menga juda yoqgan.

-Bu serial sizni nimasi bilan o'ziga maftun etdi?

-Oxiri yaxshilik bilan tugur ekan.

-Menimcha, «Qish sonatasi», «Yoz ifori», «Kuz ertagi», «Muhabbat va ehtiros» seriallari mazmuni bir-biriga yaqin. Hattoki, aktyorlari ham keyingi seriallarda qaytadan suratga tushaverishadi. Lekin bu hol yoshlarni aslo zeriktirayotgani yo'q. Aynan mana shu seriallardan yoshlarimiz ma'naviy ozuqa olishayotgan bo'lsa, ajab emas. Chunki ushbu serialdagi Koreya yoshlari hayoti, odobi, madaniyati, bir-biriga bo'lgan hurmat-e'tibori, sadoqati bizning ayrim yoshlarga o'rnak bo'lsa arziydi. Aslida boshqa millat vakillari ibrat oladigan madaniyat bizning o'zbekona urf-odatlarida bisyorligi hammamizga ma'lum. Ammo hozirgi kunda o'quvchilarga majburan chiptalar tarqatilib namoyish qilinayotgan «Sof muhabbat hamisha g'olib», «Qalblar to'liqini» kabi badiiy filmlardan ana shunday ma'naviy ozuqa ololmayotgan yoshlar albatta boshqa davlat seriallarini ko'rishga majbur, shunday emasmi?

-Fikringizga qo'shilaman. «Qish sonatasi»dagi yoshlarning bir-biriga bo'lgan

hurmati menga manzur bo'ldi. Ayniqsa, serial qahramonlarining ota-onalariga bo'lgan hurmatlari diqqatga sazovordir. O'zim ham dadam va onajonimni judayam yaxshi ko'raman. Ularsiz hayotimni tasavvur qila olmayman. Mening suyangan tog'im deb, shubhasiz ularni ayta olaman. Meni shu darajaga yetishishimda ota-onamning hissalariga katta. Birgina niyatim, ularning ishonchlarini oqlab, orzularidagi farzand bo'lib yetishishdir.

-Mashhur bo'lishga qiziqasizmi?

-Mashhur insonlarga havas qilaman. Lekin o'zim mashhur bo'lishni istamayman.

-Sababi?

-Oddiylik va samimiylik - mening hayotdagi shiorim. «Oynayi jahon» orqali boshlovchilik qilsam ham mashhurlikka intilmayman. Mashhurlik kibru havoga yaqin, deb, o'ylayman. Bu hislatlarni o'zimdanda yiroqda ushlaganim bois do'stlarim va ustozlarim doiralardan uzoqlashmayman. Shu doirani doimo mustahkam ushlagan harakat qilaman. Shu jihatdan do'st tanlamayman. Eng asosiysi, do'stlarim sodiq va vafodor bo'lsalar bo'lgani.

-Do'stlaringizga tilaklaringiz?

-«Baxt sizni hech qachon tark etmasin», so'zlari mening eng yaqin do'stlaringa aytadigan tilagimdir. Gazeta orqali ham do'stlaringa ana shu tilagimni tilab qolaman.

-Samimiy suhbatangiz uchun tashakkur.

Suhbatdosh: G. BAHODIR qizi.



(Davomi. Bosh o'tgan sonlarda.)

Ular guzardan o'tib, o'ngga burilganlarida, quyuq daraxtlar orasida maktab ko'rindi. Alisherning hayajoni tobora oshardi.

-Domulla mo'tabar odam, - dedi G'iyosiddin o'g'lining elkasini quchib. -Hurmat ila salom berib, qo'lini o'p!

-Jonim bilan aytganingizni bajo keltirurmen, -deb javob berdi Alisher.

G'iyosiddinbek o'g'lini yetaklab, maktab xonasiga kirar ekan, o'qish shovqini shartta to'xtadi, bolalar «duv» etib o'rinlaridan turdilar va: «Assalomu alaykum!» deya ta'zim qilgach, qayta o'rinlariga cho'kdilar. G'iyosiddin Alisherning qo'ldan ushlagan holda domulla oldiga borib, ehtirom ila salom berib ko'rishdi.

-Assalomu alaykum, taqsim! - deya Alisher egildi-da, qizarib domullaning qo'lini o'pdi. -Borakaloh, o'qishga keldingizmi? Balli, o'g'lon, -deya turib yangi shogirdning otasiga joy ko'rsatdi domulla.

Sersoqol, gavdali kekxa domulla boshida katta salla, ulug'vor, savlat to'kib o'ltirar edi.

-Taqsim, panohingizga keldik, -deya javob qildi Alisher hayajondan titrab.

-Balli. Taxta keltirdingizmi, bo'tam? Ko'p yaxshi. Alifboning avval harfi Oллоh taoloning muborak ismidan boshlanur.



Buni aslo unutmagaysiz, -dedi-da, domulla G'iyosiddinga qaradi. -Alisherbek tuyg'un va zakki ko'rinadur.

G'iyosiddin qulluq qildi: -Tashakkur. Ixtiyoringizga topshirdim, taqsim! -U tugunni domulla oldiga surdi va kissasidan bir tillo chiqarib ta'zim

ALISHERNING YOSHLIGI

OYBEK

ila domullaga tutdi. -Taqsim, eti sizniki, suyagi bizniki. Endi kaminaga javob bersinlar, -deya qo'llarini ko'ksiga qo'ydi.

-Alisher mullo bo'lg'ay! - deya jiddiy va ulug'vor ohangda domulla duo qilib, qo'llarini yuziga surdi.

G'iyosiddin ham unga ergashib ixlos ila duo qildi-da, xayrlashdi.

-Beri kel, chirog'im! -deya chaqirdi domulla bolalardan birini.

Irg'ib o'rnidan turib domulla oldida hozir bo'lgan bolaga kulcha va qatlamalar tugilgan dasturxonni uzatdi:

-Otin oyingga eltib ber va tez qayt, uqdingmi?

-Xo'b taqsim! -deya dasturxonni ko'tarib yugurdi bola.

Shogirdlar saboqlarini sustroq o'qir edilar. Domulla uzun jing'il tayoqni qo'lga olib, havoda bir aylantirdi:

-Qani, ildam o'qinglar!

O'qish shovqini darhol avjga mindi. Bolalarning tiniq, jarangdor tovushlari xonani

to'ldirdi.

Domulla archa hidi burqiragan yangi taxtaga savag'ich qalamda xushxat ila yirik qilib yoza boshladi.

-Hali aytganim, bu Oллоhning oti, uqdingmi?

-Alif! -deb o'qidi Alisher ixlos bilan.

-Be! -dedi domulla qamish qalamni tortib.

-Be-e!... -dedi Alisher qoidasi bilan cho'ziq ohangda.

Domulla qirt-qirt qilib qalam tortib, yozib boshladi. U o'qin-o'qin to'xtab, uzun soqollarini bir silab qo'yar va tag'in yozishda davom etur edi.

Shogirdlar o'qish orasida bir-birlarini turtib, zimdan xilma-xil o'yinlar, sho'x hunarlarini ham davom ettirur edilar. Domulla taxtani uzatar ekan, Alisher suyub ikki qo'llab oldi. Taxta yuzi harflarga to'lgan edi.

-Alifbe... O'qi bo'tam, -deya kichkinalar qatoridan joy ko'rsatdi domulla, -o'tib o'ltur, ertaga yangi saboq berurmen.

Alisher quvonch bilan domullaga qulluq qilib,

ko'rsatilgan joyga o'ltirgach, tiniq, baland ovozda «alifbe»ni qayta-qayta takrorlashga kirishdi.

Peshin vaqti bo'lganda kichkinalar ozod qilinib, kattalarga tanaffus berildi. Shogirdlar shovqin-suron ila ko'chaga otilidilar.

Alifbeni takrorlashdan tomoqlari qirilgan Ali bir to'da bolalar bilan birga o'z mahallasiga jo'nadi.

-Ona, qornim och, taom bering! - deya onasining qo'lga taxtani tutqazdi darvozadan yugurib kirgan Alisher va darhol qo'llarini yuvishga kirishdi.

-Sahardan to shomga qadar ko'cha-ko'yda kezar eding, mana endi yaxshi bo'ldi, Aliginam, peshindan so'nggi o'yin ham yetadi.

Oppoq sochiq ila yuz-qo'llarini nari-beri artar ekan, Alisher:

-Mayli, maktab ulug' dargoh, onajon, ko'p hikmatlarga oshno bo'lurmen, -dedi kattalardek.

Onasi Alisherning oldiga ovqat qo'yib, mamnun holda qarshisiga o'ltirdi va birinchi saboq haqida, domulla haqida surishtira boshladi.

(Davomi bor.)

SINF RAHBARIMIZNI SOG'INIB QOLAMAN


— Nodira, nega sinf rahbarimizni sog'inib qolaman, deysiz? Ular har kuni maktabga kelmaydilar?

—Yo'q, har kuni keladilar. Ammo kechki payt dars tayyorlayotganimda ularni ko'rgim, ko'p-ko'p savollar bergim kelaveradi. Maktabimizda Dilnoza Ilyosova singari mehribon o'qituvchilarimiz ko'pchilikni tashkil qiladi. Ammo sinf rahbarimiz Dilnoza opamlar boshqacha-da. Bilasizmi, ular oyijonimga o'xshab ketadilar. Muloyim, yuzlaridan nur yog'iladi. Bir kunda mingta savol bersak ham, erinmasdan javob topib beradilar. Ishonaverim, ular juda bilag'on.


—Raqs to'garagiga qatnashib, ancha yutuqlarga erishibsiz, shundaymi?

—Xorazmcha, arabcha raqslarni ijro etish jonu dilim. 5 yoshimdan boshlab Respublika o'quvchilar saroyidagi raqs to'garagiga qatnashaman. Bizning «Chaman» guruhimizga ustozim

Gulchehra Ismoilova yetakchilik qiladilar. Ulardan raqsning jozibali sir-asrorlarini o'rganayapman. Shu yil «Xalqlar Do'stligi» saroyida Aziza Niyozmetovaning, «Turkiston» saroyida esa Diyorbek Mahkamovning bo'lib



o'tgan konsert dasturlarida guruhimiz bilan raqslar ijro etdik. Tomoshabinlar bizni iliq qarshi oldilar. Yana yangi raqslarni o'rganib ijro etgim keladi.



Tengdoshingiz Nodira ALIJONOVA, a'lochi, jamoatchi o'quvchilardan. U Toshkent shahar, Akmal Ikromov tumanidagi 75-maktabning 4-«B» sinfida o'qiydi.

—Rasmlar ham chizarkansiz?

—«Oynayi jahon» orqali berilayotgan «Etik kiygan mushukcha», «Bo'g'irsoq», «Zumrad va Qimmat» ertaklarini maroq bilan tomosha qilaman. Ushbu ertak qahramonlari bilan o'zimcha suhbatlashib, ularning rasmlarini chizaman. Biror joyi o'xshamay qolsa, qayta-qayta chizishga to'g'ri keladi. Agar dangasalik qilib ishimni yarmidan tashlab ketsam, rasmlarim mendan «xafa bo'ladi». Chiroyli rasmlar chizish uchun ko'p mehnat qilish lozim.

—Qaysi fanlarga qiziqasiz?

—O'tayotgan barcha fanlarimiz juda qiziqarli. Matematika, ona tili, musiqa fanlariga ishtiyoqim baland.

—Dugonalaringiz bilan inoqmisiz?


Mo'yqalam sehri

kulgularini mo'yqalamda aks ettirgim kelaveradi. Ustozimiz Guli Rajabovadan «SANVIKT» nogiron bolalar markazida musavvirlik sirlarini qunt bilan o'rgandim. Guli opamning

sa'y-harakatlari bois ko'plab tanlovlarda ishtirok etib, g'olib bo'ldim. «Dunyo ranglar jilosida» tanlovida ikki marta ishtirok etib, I va II-o'rinlarga munosib topilib, televizor hamda magnitofon bilan mukofotlandim. Maktabimni, do'stlarimni, ustozlarimni juda yaxshi ko'raman. Ilm dargohimizda har yili «Mohir qo'llar» tanlovi o'tkaziladi. Ushbu tanlovda barcha sinfdoshlarim bilan faol ishtirok etamiz. Yashashning zavqini

dildan his qilganim boismi yoki boshqa sababmi, ba'zan bitta qo'limning nogironligini ham unutib yuboraman. Kuni kecha bo'lib o'tgan asfaltga rasm chizish

tanlovida III-o'ringa sazovor bo'ldim. Istagim - ko'proq o'z ustimda ishlash, tinimsiz izlanish, til o'rganish. O'zbek, rus, ingliz tillariga qiziqaman. Haftasiga 3 marta ingliz tili mashg'ulotlariga qatnashaman. Izlagan hamisha imkoniyat topar ekan. Buni quyoshli O'zbekiston tuprog'ida yashab, chuqur his qilayapman.



Jamila MUSO qizi.

—Nasiba, Ozoda, Dilorom kabi yaqin dugonalarim bor. Ular bilan doimo birga o'ynayman. Ba'zida urishib ham qolamiz. Lekin tezda yarashib olamiz.

—Uy yumushlarida faol, ukalaringizga g'amxo'r ekansiz.

—Barcha uy yumushlarida oyijonimga ko'maklashmasam bo'lmaydi. Chunki buvijonlarim Hanifa va Mavluda ayalar kunora biznikiga mehmonga chiqishadi. Hammayoq ivirsib tursa-yu, ular mendan ranjib, biznikiga kelmay qolsa nima qilaman? Bundan yomon bo'lmasa kerak. Tozalikka rioya qilishni birinchi galdagi vazifam deb bilaman. Singillarim Shahrizod va Komilalarga ham o'rinlarini tuzatishni, kiyimlarini taxlab, sochlarini tarashni, tozalikni o'rgatayapman.

—Maktabda o'qish, raqs, rasm to'garaklari, umuman hammasini qanday uddalayapsiz?

—Hammasini eplash qiyinroq. Lekin ulguraman. Eng muhimi, har bir kishining o'zida ishtiyoq



bo'lishi kerak, deb o'ylayman. Bo'sh vaqtim juda kam. O'zgina vaqt topolsam, darhol badiiy kitoblarni o'qiyman.

—Katta bo'lsangiz, kim bo'lmoqchisiz?

—Dadajonimga o'xshagan shifokor



bo'laman. Ularning bemorlar dardiga malham bo'layotganligini, shirinso'zligini ko'rib havasim keladi.

Niyati - qalbi kabi pok Nodiraxonga orzularing albatta ijobat bo'lsin deymiz.

Mohinur SAYFULLO qizi suhbatlashdi.




Mening ismim Irina, familiyam BUCHOK. Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 71-maktabning 4-sinfda o'qiyman. Har kuni O'zbekistonning issiq quyoshi bilan barobar uyg'onib, chaqnoq yulduzlari bilan suhbat qurib uyquga yotaman. 5 yoshimdan boshlab, diyorumiz manzaralarini aks ettiruvchi turli-tuman rasmlar chizaman. Qushlar sayrog'i, rang-barang gullar, keng dalalar dilimga ilhom bag'ishlaydi. Rizq yaratayotgan bobo dehqonlarimizning g'ayrat-shijoati, onalarimizning bag'ri kengligini, bolajonlarning lablaridagi beg'ubor

DO'SLIK MASOFA BILMAS

Salom, sevimli gazetamiz «Tong yulduzi»! Sinfimiz o'quvchilari sening har bir soningni qoldirmay o'qib boramiz. Tengdoshlarimiz fikr-mulohazalarini o'qib, o'zimiz ham senga maktub yo'llamoqdamiz. Ushbu maktubimizni yozishdan maqsad, viloyat va shahardagi tengdoshlarimizni munozaraga chorlashdir. Ular ham o'z maktablari, ustozlari, sinfdoshlari haqida yozib, gazetaga yuborishlarini xohlaymiz. Biz o'zimizning maktublarimizda ustozimiz, o'qigan hikoyalarimiz, orzularimiz haqida bayon qildik. Yozganlarimiz haqidagi tengdoshlarimiz fikrlarini gazeta sahifalarida o'qish birdan-bir orzuumiz. Gazeta orqali fikr almashishga nima yetsin, aziz tengdoshlar!

*Farg'ona viloyati,
Rishton tumanidagi
32-maktabning 5-sinf
o'quvchilari.*



Yorqin ufqlar.

HIMOYACHI QIZ

Qiz bola bo'lishimga qaramay, katta bo'lsam vatan himoyachisi bo'lmoqchiman. Chunki vatanimizni qo'riqlayotgan posbonlarga havas qilaman. Bu sharafli kasb doim meni o'ziga chorlaydi. Men qiz bolaman, lekin mard, jasur o'g'lonlar kabi harbiy forma kiyib, vatanim suyanchi bo'lishni xohlayman. Shular haqida o'ylab, qalbim g'urur va iftixorga to'ladi. Bu haqda hatto she'r ham yozdim:

*Qo'riqlaymiz ona vatanni,
Obod yurtim O'zbekistonni.
Biz vatanga bo'laylik posbon,
Uning uchun bag'ishlab jonni.
Qo'riqlaymiz viqorli tog'ing,
Aldir, dala, qumloq, o'tlog'ing.
Oltin kabi aziz tuprog'ing,
Himoyaching - o'zimiz, Vatan!
Qo'riqlaymiz har lahza, har on,
Qor yog'sa ham, yomg'ir yog'sa ham,
Shamol bo'lsa, dovul tursa ham
Himoyaching - o'zimiz, Vatan!*

Sayyora HAMIDOVA.

Men sizga o'z orzularim haqida gapirib bermoqchiman. Birinchisi - kelajakda sevimli ustozim, sinf rahbarimiz kabi ona tili va adabiyot fani muallimasi bo'lmoqchiman. Nima uchun deysizmi? Chunki ustozimizning dars o'tishlari, tushuntirishlari, muomalalari menga juda yoqadi. Meni ham kelgusida

MENING UCH ORZUIM

o'z o'quvchilarim hurmat qilishlarini juda-juda istayman. Ikkinchisi esa, «Tong yulduzi» muxbiri bo'lish. Yozgan she'r, hikoya va maqolalarim doimo gazetada chop etib turilishini xohlardim. Uchinchi shuki, yurtimiz doimo tinch bo'lsa, tengdoshlarim hech qachon bilim olishdan charchashmasa. Tengdosh, sizning qanday orzularingiz bor? Bu haqda «Tong yulduzi» orqali ma'lumot olmoqchiman. Maqsadim, ona vatanim, hur O'zbekistonimning murg'ak yurakchalari, tengdoshlarimning yuksak orzularini bilish, ayrimlaridan o'rnak olishdir.

Husanoy AZIMOVA.

JAHON ADABIYOTI NAMOYANDASI

Do'stlar, jahon adabiyoti durdonalaridan o'qib turasangiz kerak-a? Albatta, shunday ajoyib, qiziqarli asarlarni kim ham o'qimaydi, deysizmi?

Jahon adabiyotida bolalar yozuvchilari Janni Rodari, Sharl Pero, Xans Kristian ertaklarini ko'pchiligingiz sevib, mutolaa qilasiz. Lekin ular haqida ma'lumotga egamisiz? Men sizlarga ajoyib ertakchi Xans Kristian Andersen haqida oz-moz ma'lumot bermoqchiman. Chunki uning hayot yo'li menga yoqadi va Andersen yoshligiga havas qilaman.

Andersen Odens shahrida kambag'al oilada tug'ilgan. Natijada tinimsiz o'qib, izlanishda bo'lgan adib tez orada mashhur ertakchiga aylangan. U hayoti davomida teatr uchun pyesalar yozgan, bastakor Veyze, tarjimon Vulf bilan hamkorlikda ishlagan. Kopengagendagi

Qirollik teatrining direktori Kollin Andersenning gimnaziyaga va universitetga kirishiga yordam bergan.

Kristian Andersen talabalik chog'larida nemis, fransuz, italyan, ingliz tillarini o'rganib, bu tillarda yaratilgan asarlar bilan tanishib chiqqan. Universitetni tugatgach, Germaniya, Shvetsiya, Angliya, Fransiya va Afrika mamlakatlariga sayohat qilib, o'z asarlari uchun qiziqarli va ajoyib manbalar to'plagan.

Shuning uchun ham uning asarlari o'quvchilar uchun sevimli bo'lib qolgan. Uning «Bulbul» nomli ertagi menda yaxshi taassurot qoldirdi. Bu ertakni majoziy ertaklar safiga qo'shishimiz mumkin. Aziz tengdosh, ushbu ertak haqida batafsil ma'lumot bermayman. Yaxshisi, ertakni o'zingiz o'qib, taassurotlaringizni biz bilan o'rtoqlashing.

Sadoqat TURSUNBOYEVA.



BIR - BIRIMIZNI SIZLAYMIZ

Bizning sinfimizda 32 ta o'quvchi bilim oladi. Sinfxonamiz chiroyli va ko'rkam bo'lib, doimo ozoda turadi. Bunda navbatchilarning hissalarini katta. Xonamizni chiroyli gullar bilan bezatib qo'yganmiz. Darslarimizga kelsak, sinfimiz o'quvchilarining ko'p qismi 1-chorakni a'lo baholar bilan yakunlashdi. Chunki ular darslarini va uyga berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajaradilar-da! Bunga asosiy sababchi qilib ustozlarimizni ko'rsata olamiz. Ularni qattiq hurmat qilamiz.

Sinfdoshlarim haqida yana bir sirni ochmoqchiman. Biz sinfda bir-birimizni sizlab gaplashamiz. Shundan bo'lsa kerak, sinfdoshlar juda ahilmiz.

Maktubimizni o'qigan bo'lsangiz, o'zingiz o'qiydigan maktab va sinfdoshlaringiz haqida yozib yuborishni unutmang.

Zilola ABDUJALILOVA.

Qadrl o'quvchilar! Mana, tengdoshlaringiz 32-maktab o'quvchilari fikrlari bilan tanishdingiz. Ular istaganidek, siz ham orzularingiz, maktab hayotingiz, sizni qiynayotgan muammolar haqida, do'stlaringiz, xullas xohlagan mavzuingizda ular bilan fikr almashishingiz mumkin. Maktublaringiz «Do'slik masofa bilmas» rukni orqali muntazam berib boriladi.

Gulyuz ARIFJANOVA tayyorladi.

Qadrl tengdosh! Men sizga sevimli gazetam orqali yaqinda o'qigan ertagim haqida hikoya qilmoqchiman. Ushbu she'riy ertak Shukrullo qalamiga mansub bo'lib, «Umr haqida ertak» deb nomlanadi.

Bir sayyoh o'z baxtini izlab, o'zga yurtlarda kezib yuradi. U qancha yurtlar kezmasin, ozod va baxtli kishilarni uchratmaydi. U o'zga yurtning mozoriga borib, ziyorat qilayotib, qiziqarli

SAYYOH UMRI

voqeaning guvohi bo'ladi. Qabr toshlariga qarab bu yurt odamlarining 2-3 yil yashaganliklarini o'qib, hayratga tushibdi. Keyin bilsa, bu qabr toshlariga odamlarning erkinlikda yashagan damlarigina yozilgan ekan. Shunda sayyoh qabriston shayxiga:

-Men dunyodan ko'z yumsam, bir kun ham yashamadi, deb yozing, -degan ekan.

Ertakni o'qib, umrim sayyohning umriga sira-sira o'xshamasligini istadim. Chunki sayyoh o'z baxtini izlab vatanidan chiqib ketgan. Men esa bunday qilmagan bo'lar edim. Baxtimni o'z vatanimdan topishimga ishonaman.

Aziz tengdosh, sayyohning hayot yo'li sizga yoqdimi? Bu borada qanday yo'l tutasiz? O'qigan asarlaringiz haqida ham yozib yuboring.

Anvarjon AKROMOV.

«UCHINCHI SAYYORA» BO'YLAB SAYYORA

Salom, mening aziz, har narsani bilishga qiziquvchan va ilmga chanqoq o'quvchim. Siz bilan goho yuzma-yuz, gohida kitob orqali uchrashish sizning gulgun chehrangiz, beg'ubor qalbingiz, kelajakka pok ishonch bilan qarashingiz menga har doim olam-olam quvonch hamda cheksiz umid baxsh etadi. Men sizni ilmga va har narsani bilishga qiziquvchan o'quvchim deb atadim. Bu bejiz emas, albatta. Chunki siz hayotda tetapoya qadamlar tashlab yura boshlaganingizdanoq, har narsani o'z qo'lingiz bilan ushlab ko'ringiz, uning nima ekanligini bilgingiz kela boshlaydi. Shirin tilingiz bilan sizga mehribon odamlarni savollarga ko'mib tashlaysiz. Hech shubha yo'qki, nega, nima uchun, degan savollaringizga javob topish uncha-muncha bilimdon odamni shoshirib qo'yadi. Bolalar bog'chasida ulg'ayib,

ba'zi savollaringizga javob topgandek bo'lasiz. Ishonchim komilki, hayotga bo'lgan qiziqishingiz savollaringizga javob topishga bo'lgan intilishingiz, maktabga chiqqaningizdan so'ng yana ortadi. Ayrim savollaringizga kitoblardan javob qidirishga intilasiz. Men sizga ana shu intilishingizga, nega, qachon, degan savollaringizga qisman bo'lsa-da, yordam berish maqsadida, siz-u bizni o'rab turgan tabiat, ona zaminimiz bo'lgan Yer, uning paydo bo'lishi, tuzilishi, undagi o'simlik va hayvonot olami haqida qisqacha bo'lsa-da, so'zlab bermoqchiman. Chunki odamzod paydo bo'lgandan beri, o'zi yashab turgan zamin haqida ko'proq bilgisi keladi. Unga qiziqadi, uni o'rganishga harakat qiladi.

-Xo'sh, bizni o'rab turgan tabiat qanday tuzilgan?

-U aslida qachon paydo bo'lgan?

-U nimalardan iborat?

-Yer nima uchun «Uchinchi sayyora» deb ataladi?

Bu kabi savollarni juda ko'plab eshitish mumkin. Bu savollar bunday o'ylab qaraganda, juda jo'n, soddaga o'xshab ko'rinadi. Aslida-chi? Aslida esa bu sodda va oddiy savollarga javob topish juda ham qiyin va murakkab. Keling, shu savollarga oddiyroq qilib javob qaytarishga harakat qilib ko'raylik. Misol uchun, mendan


-siz tabiatni qanday tushunasiz, u nimalardan iborat? deb so'raganlarida, oddiygina qilib bizni o'rab turgan borliq - tabiat! U Yer, Suv, Osmondan iborat, deb javob qaytargan bo'lar edim. Axir haqiqatan ham shundayda. Oyog'imiz ostida Yer, tepamizda esa Yulduzlarga to'la Osmon. Ana endi Yer qachon paydo bo'lgan va u qanday tuzilishga ega, degan savollarga qisqacha bo'lsa-da, javob berib o'tamiz.

I.Kant, P.Laplas, O.Shmidt ham shunga o'xshash fikrlarni

Mustaqil dars

Hozirgi olimlarning fikriga ko'ra, Quyosh va sayyoralar bir vaqtda yulduzlar orasidagi moddalar-chang zarralari va gazdan hosil bo'lgan. Bu sovuq modda asta-sekin zichlashgan, siqilgan, so'ngra bir-biriga teng bo'lmagan bir nechta quyuk narsalarga parchalanib ketgan. Ulardan biri Quyosh bo'lgan. Quyoshdagi moddalar o'zaro siqilishda davom etib, yonib ketgan. Uning atrofida aylana shakliga ega bo'lgan chang-gaz ko'rinishdagi bulutlar aylanib yurgan. Ana shu bulutlarning zich quyularidan, sayyoralar, shu jumladan, Yer ham paydo bo'lgan. Yer paydo bo'lgan vaqtda juda ham sokin, qandaydir qo'rqinchli va vahimani bo'lgan bo'lsa kerak. Chunki unda hech qanday hayot namunasi bo'lmaganda! Buning sababi esa olimlarning ta'kidlashicha, atmosfera tarkibida turli gazlar-vodorod, metan, suv bug'i, karbonat anhidrid va birikma holda kislorod bo'lgan. Erkin holda kislorod bo'lmagandan so'ng, Yerda hayot

150 mln. yil o'tib, o'sha davrda Yerda hamda quruqlikda yashovchi hayvonlarning dastlabki vakillarini ko'rish mumkin edi. O'rmonlarda biz umuman ko'rmagan bahaybat paporotniklar, qirqbo'g'inlar, igna bargli daraxtlar o'sadi. Oradan yana yillar o'tib, taxminan 200-250 mln. yillar



avval Yer yuzida sudralib yuruvchilarning eng katta va buyuk vakillari Dinezavrlar paydo bo'lgan.

Bular albatta Yer tarixini o'rganuvchi geolog olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida isbotlangan. Yerning geologik tarixi esa bir-biriga teng bo'lmagan ikki bosqichga bo'lib o'rganiladi. 1-bosqich tokembriy, ikkinchi bosqich fanerozoj. Tokembriy davrida suvo'tlar, yumaloq chuvalchanglar, meduzalar paydo bo'lgan. Bu davr taxminan 4 mlrd. yilni o'z ichiga oladi. Fanerozoj esa uch eradan iborat bo'lib, rivojlanish boqichi 600 mln.

Odamzod paydo bo'libdiki, uni shu savol doimo qiynaydi: Yer qachon va qanday paydo bo'lgan? Haqiqatan ham juda qiziq-da. Yerda yashasang-da, uni qachon va qanday paydo bo'lganini bilmasang. Jahon olimlarining bu sohada olib borgan izlanishlariga qaraganda, Yer bundan 3,5-4 milliard yil avval paydo bo'lgan. Millard yil! Bu qanchalik katta raqam ekanligini yaxshi bilasiz! Bu raqam ham to'liq tasdiqlangan emas. Balkim bundan ko'proq yoki kamroq yil mobaynida Yer paydo bo'lgandir. Yerning yaratilishi haqida turli xalqlarda turlicha afsonalar ham bor. Afsonalardan haqiqat bo'lishi ham mumkin. Uni Olloh yaratgan degan fikrlar ham yo'q emas. Biz bu haqda bahslashmoqchi emasmiz.

Yerning paydo bo'lishi haqida olimlar aytgan fikrlarga diqqatingizni tortmoqchimiz, xolos. Antik davrda yashab o'tgan Evklid, Ptolomey, Arximed, Demokrit, Aristotel kabi olimlar yerning paydo bo'lishi va tuzilishi, modda, jism haqidagi o'z fikrlarini bayon

YERNING PAYDO BO'LISHI

etishgan. O'rta Osiyolik mashhur alloma Abu Rayhon Beruniyning bu sohada olib borgan ishlari diqqatga sazovordir. U yer kartasini tuzib, okeanning narigi tomonida ham quruqlik bo'lishi kerakligini oldindan bashorat qilib berdi. Uning bu fikri naqadar to'g'ri ekanligini XV asrda Xristofor Kolumb isbotladi. Natijada Amerika qit'asi kashf etildi. Yulduzlar ilmining sultoni Mirzo Ulug'bek Yerning tuzilishi, yulduzlar sistemasi, ularning

joylashishi va harakatlanishiga oid juda ko'p ilmiy asarlar yozib qoldirdi. Uning «Ziji Ko'ragoniy» asari (yulduzlar harakati haqidagi jadval) uning nomini Yevropaga va butun dunyoga mashhur qildi. U o'z asarida 1418 ta yulduzning harakati va joylashishini aniq ifodalab berdi. XV-XVIII asrlarga kelib Yevropa olimlari bu sohada juda katta ilmiy farazlarni ilgari surdilar. Jumladan, Fransuz olimi Jorj Byuffon (1707-1788) aytishiga qaraganda, Yer shari

nima qilsin?! Kislorod hayot manbai ekanligini Siz juda ham yaxshi bilasiz. To'g'rimi, bolalar? Yillar



davomida gazlar va suv bug'i orasida kimyoviy jarayonlar davom etishi natijasida ajralgan erkin holdagi kislorod atmosferada to'plana borgan. Ba'zan uzluksiz yomg'irlar yog'gan bo'lsa, gohida jazirama issiq bo'lgan. Shu tariqa millionlab yillar o'tishi davomida Yer juda katta o'zgarishlarga uchragan. Bir tomonda vulqonlar tinimsiz otilib, Yer yuziga dahshat solib turgan bo'lsa, boshqa tomondan uni muz qoplagan. Nihoyat vulqonlar so'na boshlagan. Muzliklar chekingan va Yerda hayot paydo bo'la boshlagan. Albatta bunga rjillionlab yillar kerak bo'lgan. Taxminan 500 mln. yillar muqaddam okeanlarda bir hujayrali oddiy hayvonlar, yillar o'tishi bilan esa turli xil oddiy, shuningdek, yirtqich baliqlar paydo bo'la boshlagan. Oradan

deb taxmin qilinadi. Ana shu uch era (poleozoy, mezazoy, kaynazoy) dan biri mezazoy ham uch davrga bo'lib o'rganiladi. Bular trias, yura va bo'r davrlari. Biz bunga ko'proq to'xtalayotganimizning sababi, sizga yaxshi tanish bo'lgan bahaybat kaltakesaklar, ya'ni dinezavrlar ana shu davrda yashagan. Sizga yaxshi tanish bo'lgan deganimning boisi, dinezavrlar haqida juda ko'p badiiy va hujjatli, hattoki multfilmlar yaratilgan bo'lib, ularni ekran orqali ko'rgan bo'lishingiz tabiiy. Olimlarning aytishicha, dinezavrlarning 600 ga yaqin turi bo'lgan. Ularning ayrimlarining bo'yin uzunligi 30 metrgacha yetgan. Og'irligi esa taxminan 30-80 tonna atrofida bo'lgan. Eng qizig'i shundaki, ularning ko'pchiligi, masalan, diplodok, brontozavr, broxiozavr, stegozavr, evoplosefal, triserotopslar o'txo'r hayvon hisoblangan, ya'ni ular yirtqich bo'lmagan! To'g'ri, dinezavrlarning hammasi ham yirtqich emas edi, deyish haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Ularning orasida tironozavrga o'xshash yirtqichlari ham bo'lgan. Keling, shularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

(Davomi bor.)

Bahrom AKBAROV.

1 bob

DAVLAT SUVERENITETI

1-modda. O'zbekistonsuveren demokratik respublika. Davlatning «O'zbekiston Respublikasi» va «O'zbekiston» degan nomlari bir ma'noni anglatadi.

2-modda. Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar.

3-modda. O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy huquqiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

O'zbekiston davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir.

4-modda. O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.


5-modda. O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega.

6-modda. O'zbekiston Respublikasining poytaxti - Toshkent shahri.

Kunlarning birida

QUYONNING GO'SHTI EMAS, O'ZI DAVOLADI

Kunlarning birida mening jonajon va yakkayu-yagona singlim Iroda qattiq betob bo'lib qoldi. Uni bir qancha shifokorlarga ko'rsatdik. Shifokorlar ko'rigidan o'tgach, shu narsa ma'lum bo'ldiki, singlimning dardini davolash biroq ko'pga cho'zilishi mumkin ekan. Qaytishda doridarmonlarning ro'yxatini yozib berishar ekan, shifokorlar singlimning tezroq tuzalishida quyon go'shtidan taomlar tayyorlab berish muhimligini alohida ta'kidlab o'tishdi. Singlimni uyga olib kelgach, yaxshilab davolay



boshladik. Bozorga borib, Iroda uchun 2 ta quyon olib keldik. Iroda quyonlarni ko'rib, ularni boqishini aytdi va so'ymanglar, deb iltimos qila boshladi. Biz uning ko'nglini qoldirishni istamaganimiz uchun uning qiziqishiga yo'l ochib berdik. Oradan uch kun o'tdi chamasi, Irodaning kayfiyati ham, ishtahasi ham ochila boshladi. Bir hafta deganda butunlay sog'ayib ketdi. So'ng, singlimni yana bir bor shifokorlar ko'rigidan o'tkazdik. Ular

singlimning butunlay sog'ayib ketganini aytdi. Shunda biz quyon go'shtidan hech narsa tayyorlab bera olmaganimizni aytdik. Sababini eshitgach, shifokorlar Irodaning holatiga shunday izoh berishdi: «Farzandingizning ko'nglini qoldirmay juda to'g'ri yo'l tutibsiz. Qizingiz quyonlarni parvarish qilishni juda sevar ekan. Bu esa unga dam bergan. Asablari tinchlanib, quyonlardan zavq olgan va shu tariqa qizingiz sog'aya boshlagan». Biz uyga qaytar ekanmiz, Irodaga e'tibor bilan razm soldik va shifokorning so'zlari to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qildik. Uning yuz-chehrasida quvonch va mamnunlik aks etib turardi.

Gavhar SHOMANSUROVA,
O'ZDJTU talabasi.

II bob

XALQ HOKIMIYATCHILIGI

7-modda. Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir.

O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi.

Konstitusiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki

tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitusiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

8-modda. O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi.

9-modda. Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasidan.



XAVOSIR

Bir kun qo'ng'iz uyiga,
Chaqirdi qirqoyoqni.
Do'sti kelmasdan burun,
Supurdi hammayoqni.

Yerto'laning to'ridan,
Mehmon uchun joy soldi.
Shu zahoti qirqoyoq,
Lapanglab kelib qoldi.

Kiravering, deb qo'ng'iz,
O'zi o'tirdi sekin.
Bir soat o'tsa hamki,
Undan darak yo'q lekin.

Mezbon ham hayron bo'lib,
Eshikni ochsa bundoq.
Qirqinchi kalishini,
Yechar edi qirqoyoq.

Orif To'xtash

HISSA

-Men kichkina bo'lsam ham,
Oyimga yordamchiman,
Deydi ovqatdan keyin,
Maqtanib jajji Juman.

Bir burchakda uyvolib,
O'tirmayman qovoqni.
Yuvish oson bo'lsin deb,
Yalayapman tovoqni...

KITOB DAN YAXSHI DO'ST YO'Q

Shaxsiy kutubxonam bor. Yaqinda Xudoyberdi To'xtaboyev, Nosir Fozilov, Tursunboy Adashboyevlarning kitoblari bilan o'z kutubxonamni yanada boyitdim. Men tengdoshlarimga ham ko'p kitob o'qishlarini maslahat berardim. Chunki, kitobdan yaxshiroq do'st bo'lmaydi.

Fotima RAVSHANOVA,
Chirchiq shahridagi 2- ixtisoslashtirilgan
maktabning 4-«A» sinf o'quvchisi.

1. Sport turi.
2. Arktikada yashaydigan qush.
3. Qizil qalpoqchani yeb qo'rgan hayvon.
4. Toshli hayvon.
5. Avtomobil.
6. Asalni yaxshi ko'ruvchi hayvon.
7. Maqtanchoq... (ertak).
8. Ko'pkarida qatnashadigan jonivor.



Tuzuvchi: Shuhrat KOMILJON o'g'li, Xorazm viloyati,
Qo'shko'pir tumanidagi 10-maktab o'quvchisi.

Ona yurtig - otin beshigig
TONG
yulduzi

O'zbekiston bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida
ABDUAZIMOVA.

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
O'ktam OHUNOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida

N: 022 raqam bilan
2003 yil 11 dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 11167
Buyurtma N: J 743

Dizayn va sahifalovchi:

Otabek
ESHCHANOV.
Navbatchi:
Ozoda
TURSUNBOYEVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:

700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38
144-38-10
144-21-75

Tel./ faks:
(99871) 144-24-45